

Surxondaryoda istiqlol ayyomi ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda



Surxondaryoda istiqlol ayyomi ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda

Kecha, mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlab Termiz shahridagi San'at saroyi amfiteatrida viloyatning asosiy bayram tantanalari bo'lib o'tdi.

Tadbirga ishlab chiqarish ilg'orlari, fermer va tadbirkorlar, nuroniylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tantana avvalida Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov voha aholisini eng ulug', eng aziz bayram bilan tabrikladi.

Bayram dasturi har qachongidan o'zgacha bo'ldi. Milliy-etnografik guruhlarning chiqishlari, turli tillarda yangragan qo'shiqlar, turli badiiy va sahna ko'rinishlari, Vatan, mustaqillik va mardlik tarannum etilgan qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.